

PEDAGOGIKANING YOSHLAR TARBIYASIDAGI O'RNI

Rustamova Muxarramoy Obobaxri qizi*Qo'qon universiteti Andijon filiali Ijtimoiy gumanitar fanlar fakulteti**Ingliz tili yo'nalishi 24-09 guruh talabasi***Ilmiy raxbar: Umurzakova Muattar Oyibek qizi**muharramoyxolmatova18@gmail.com

Tel : +998997974613

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy ta'limda va pedagogikaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni, pedagogika o'zi nima, pedagogikaning maqsadi, vazifalari, metodlari va dolzarb yo'nalishlari haqida so'z boradi. Tarbiya ijtimoiy hodisasi va qadimiy tushincha bo'lganligi sababli pedagogika fani ham qadimiy fanlar toifasiga kiradi. Shunga asosan: pedagogika so'zi qadimiy Yunonistonda paydo bo'ldi. "Pedagogika" so'zi yunoncha "paidagogos" (pais,paidos – bola va + agogas – yetaklovchi) so'zidan olingan bo'lib, to'g'ridan -to'g'ri "bola yetaklovchi" degan ma'noni anglatadi. Bu yerda quldorlar bolalarini maktabga kuzatib qo'yadilar, o'quv anjomlarini maktabga va maktabdan uygacha olib boradigon qullar pedagog deb atashgan.

Kalit so'zlar; pedagogika, tarbiya, ta'lim, fanning maqsadi, vazifalari, metodlar, yo'nalishlar, didaktika.

Kirish

Pedagogika so'zi Yunonchadan olingan bo'lib bola yetaklovchi degan ma'noni anglatishi haqidagi ma'lumotga ega bo'ldik. Keyinchalik manufakturasining rivojlanishi, ishlab chiqarish qurollarining murakkablanishi va maktab ta'limi tarbiyasi to'g'risidagi ma'lumotlarga ega bo'lgan shaxslarga pedagog deb atala boshlagan. Ko'p vaqtlar pedagogika ilim fan sifatida faqat yosh avlodning ta'lim tarbiyasini o'rganadi deb unga tor ma'noda qaralgan. Ammo, hayot tajribasi olamning moddiy–ma'naviy tuzilishi, qurilishi, rivoji, insonning imkoniyatlari, yashashsharoiti doimiy ravishd uningaqliy–axloqiy,jismoniy xususiyatlari bilan bo'liqligi tarbiyaning faqat bolalargina emas, balki kattalarga bog'liq ekanligini ko'rsatadi.Shuning uchun ijtimoiy – siyosiy hayot va taraqqiyotning keying bosqichlarida pedagogika fanini yoshlar va katta yoshdagi kishilarni tarbiyalash,shakl, vositasi metodlarini o'rgatuvchi fan sifatida qabul qilishga asos solinadi. Xulosa qilib aytganda, pedagogika fanining o'rganish sohasi (predmeti) tarbiya -ta'lim -ma'lumot bo'lib, u yosh avlodni, tarbiyalash, o'qitish, ma'lumotli qilishning qonuniyatlari, mazmuni, usullari, vositalarini o'rgatadi. Shuningdek pedagogika fani o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish,intelektual jihatdan rivojlantirishning ma'naviy didaktik shart-sharoitlarini yaratish va ta'minlashtirishni nazarda tutadi.Tarbiya nazariyasi -pedagogikaning muhim tarkibiy qisimlaridan biri bo'lib, dunyo qarashni tarkib toptirish,ijtimoiy tarbiya,aqliy, axloqiy, jismoniy

mehnat,estetik,iqtisodiy,huquqiy va ekologik va jismoniy tarbiya kabi yo'nalishlardan tashkil etiladi.

Pedagogika fanining vazifalari

Pedagogika fani shaxsni shakillantirishdek ijtimoiy buyurtmani bajarish asosida jamiyat taraqqiyotini ta'minlashga alohida hissa qo'shadi.Pedagogika fanining maqsad va vazifalarining belgilanishida ijtimoiy munosabatlar mazmuni, davlat va jamiyat qurilishi, uning hayotida yetakchi o'rin g'oyalar mohiyati muhim ahamiyatga ega. O'zbekiston Respublikasida demokratik, insonparvar jamiyat barpov etish sharoitida mazkur fan yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadрни tarbiyalash tizimini ishlab chiqish, milliy istiqlol g'oyasi asosida ta'lim va tarbiya nazariyasini rivojlantirish vazifasini hal etadi. Mazkur jarayonda quydagi vazifalarni bajarishga e'tibor qaratiladi. Yoshlarni vatan ravnaq,yurt tinchligi,xalq farovonligi kabi g'oyalar ruhida tarbiyalash.Yuksak fazilatlarga ega intellekti yuqori,komil insonni tarkib toptirish.Yosh avlodni jamiyatda qabul qilingan odob axloq qoidalariga mos keladigon axloqiy,malaka va ko'nikmalarini tarkib toptirish.Yoshlarni o'zi hohlagan kasbini tanlash mukammal egallab, shu sohada yuksak ma'naviyatli inson etib tarbiyalashdan iborat[4.8]

Pedagogikaning dolzarb yo'nalishlari

Hozirgi kunda ta'lim sohasidagi global o'zgarishlartufayli pedagogikada yangi yo'nalishlar va yondashuvlar shakillanmoqda.Quyda pedagogikaning eng dolzarb yo'nalishlari kiritilgan.

1.Raqamli pedagogika (Digital pedagogy).

Raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish metodlari va ta'lim berishni o'zlashtirish. Asosiy yo'nalish,Online ta'lim(masofsviy o'qtish). Virtual sinflar vaplatformalar (Zoom, Moodle, Google classroom).Sun'iy intellekt asosida ta'lim tizimlari (AL tutorlar,Chat GP kabi).

2.Insonparvar (humanistic) pedagogika. Shaxsga yo'naltirilgan,inson qadiryatlariga asoslangan ta'lim. Etibor markazida o'quvchininng individualligini hurmat qilish,emotsional intellektni rivojlantirish,motivatsiya va o'z-o'zini anglash.

3.Inkluziv ta'lim (Inclusive education.)Har qanday jismoniy yoki aqliy imkoniyati cheklangan bolalar uchun qulay muhit yaratish.Asosiy g'oya Har bir bola teng imkoniyat larga ega bo'lishi kerak.[4,10].

4.Kompetensiyaga asoslangan yondashuv. Ma'nosi: Bilim berish emas balki amaliy ko'nikmalarni shakillantirish e'tiborga qaratiladi.Masalan tanqidiy fikirlash,muammo hal qilish,muloqat qilish va jamoada ishlash.

5.Steam -ta'lim (Science Technology,Engineering Art,Math).Mazmuni fan texnologiyalari,muhandislik,san'at va matematika fanlarini integratsiyalashgan holda o'qitish.Masalan yaratuvchan,muammolarni hal qila oladigon,zamonaviy fikirlaydigon avlodni tarbiyalash.

6.Ekopedagogika.Ta'rif–tabiatni asrash,ekologik ongni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim.Muhim jihatlari Ekologik xavfsizlik,atrof muhitga ongli munosabatda bo'lish.

7. Hayot davomida ta'lim olish (Lifelong learning). G'oya : Inson faqat maktabda emas, balki butun umri davomida o'rganib boradi. Amaliyotda katta yoshdagilar uchun kurslar, online darslar, o'z-o'zini rivojlantirish dasturlari.

8. Interaktiv pedagogika. Uslubi: Dars jarayonida o'quvchilar faol qatnashadi, muhokama, debat, ro'lli o'yinlar orqali o'qitiladi. Afzalligi o'quvchilarning faolligi, mustaqil fikirlash, muloqot madaniyati rivojlanadi.

Pedagogik metodlar.

Metod o'zi nima avvalo shu so'zga ozgina tushuncha berib ketsak. Metod yunonchadan olingan bo'lib "methods"-bilish yoki tadqiqot yo'li, nazariy, ta'limot) voqelikni amaliy va anzariy egallash, usullar majmuasi, falsafiy bilimlarni yaratish va asoslash usuli.

1. Pedagogik kuzatish metodi. Uni qo'lash jarayonida, ta'lim muassasalarining o'quv-tarbiya ishlari jarayonini o'rganish asosida tadqiq etilayotgan muammo holat aniqlanadi tajriba -avvali va yakunida qo'lga kiritilgan ko'rsatkichlar o'rtasidagi farq to'g'risidagi ma'lumotga egabo'linadi.

2. Suhbat metodi. Bu metod pedagogik kuzatish jarayonida ega bo'lgan ma'lumotlarni boyitish, mavjud holatlarga to'g'ri baho berish, muammoning yechimini topishga imkon beruvchi pedagogik shart-sharoitlarni yaratish, tajriba sinov ishlarini subyektlarini imkoniyatlarini muammo yechimiga jalb etishga yordam beradi.

3. Anketa Metodi (Fransuzcha tekshirish) Ushbu metod yordamida pedagogik kuzatish va suhbat jarayonida to'plangan dalillar boyitiladi.

4. Intervyu metodi. Respondent tomonidan tadqiq etilayotgan muammoning u yoki bu jihatini yorituvchi hodisaga nisbatan munosabat bildirishni ta'minlaydi.

5. Ta'lim muassasasi hujjatlarini tahlil qilish metodi. Pedagogika hodisa va dalillarni tekshirish maqsadida ta'lim muassasalarini faoliyat mazmunini yurituvchi ma'lumotlarni tekshirish maqsadiga muvofiqdir.

6. Test metodi. Ushbu metod respondentlar tomonidan muayyan fan sohasi yoki ifaoliyat (shu jumladan, kasbiy faoliyat) bo'yicha o'zlashtirigan nazariy bilim va amaliy ko'nikma, malakalari darajasini aniqlashga xizmat qiladi.

7. Pedagogik tahlil metodi. Tadqiqotni olib borish jarayonida ushbu metodni qo'llashdan ko'zlangan maqsad tanlangan muammoning falsafiy, psixologik hamda pedagogik yo'nalishlarda o'rganganlik darajasini aniqlashdan iborat bo'lib, tadqiqotchi ilgari surayotgan g'oyaning jihatdan haqqoniyligini asoslashga xizmat qiladi.

8. Bolalar ijodini o'rganish metodi. Mazkur metod o'quvchilarning muayyan yo'nalishlardagi layoqati, qobiliyati, shuningdek, ma'lum fan sohalari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalari darajasini aniqlash maqsadida qo'yiladi.

9. Pedagogik tajriba. (Eksperiment-lotincha "sinab ko'rish",) tajriba qilib ko'rish" metodi. Pedagogik tajriba metodidan muammo yechimini topish imkoniyatlarini o'rganish, mavjud pedagogik sharoitlarning maqsadga erishishning kafolatlay olish, ilgari surilayotgan tavsiyalarning amaliyotda o'z(aksiga) inikosiga ega bo'la olish hamda samaradorligini aniqlash maqsadida foydalaniladi. [1,26,27,28].

Xulosa



O'zbekiston mustaqillikka erishishi natijasida milliy ong mafkuraviy qolipdan qutildi. Bu hol pedagogikaning sog'lom aqil, ruhiyat va an'analarga mone tarzda yo'lga yo'lga qo'yilishiga imkon yaratadi. Bugungi o'zbek pedagogikasi mollat ruhiyatidagi nozik jihatlarini hisobga olgan va dunyo tarbiya shunosligida eng so'nggi yutuqlarga tayangan holda taraqqiy etmoqda. Zamonaviy o'zbek pedagogikasida ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchi va tarbiyalanuvchilarning faol ishtirok etishlarini ko'zda tutadi. Bolalar yoshlar pedagogik jarayonining obyektiga emas, balki subyekti ya'ni ijrochisi ham ekanligiga alohida etibor qaratilmoqda. Ayni vaqtda barcha pedagogik tadbirlar ta'lim tarbiya oluvchilarning mustaqil fikirlashlarini taminlash ularda tarbiyalanish va o'qishga ehtiyoj uyg'otishga yo'naltirilgan holda tashkil etilmoqda. Bugungi o'zbek pedagogikasi uchun muayyan ta'limlar yig'indisi emas, bola shaxsi bosh qadiryatiga aylangan. Shuning uchun ham milliy pedagogikada, faqat bilimli o'quvchilar tayyorlashga emas, balki izlanuvchan, tashabuskorlar shaxsini shakillantirishga asosiy e'tibor berilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Umumiy Pedagogika Abdullayeva B.S., Xoliqova A.A., Farsaxonova D.R., Muhammadiyeva S.V., Sheranova M.B.
2. Umumiy Pedagogika va Psixologiya. Marg'uba Mirqosimova. Zebo Qosimova. Feruza Rasulova. Toshkent-2020.
3. Inklyuziv ta'lim. Isroilova Xusnida Adilova.
4. Umumiy Pedagogika va Psixologiya. Nuraliyeva N.B., Berdaliyeva G.A.
5. Umumiy Pedagogika. Gullola Shavkatovna, Hakimova Nargiza Supkonovna.